https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Rajabova Xurshida Hakimovna
Qashqadaryo VPMM Maktabgacha,
boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
xurshidarajabova@46gmail.com

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB O‘QUVCHILARDA KREATIV FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyadan dars davomida foydalanib o‘quvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatish usullari haqida so‘z boradi. Kreativlik va o‘qituvchining kreativligi tushunchalari ta’riflanishi bilan bir qatorda kreativlik tushunchasi shakllantirish borasida so‘z yuritiladi. Ta’lim muassasalari raqamli texnologiyalarni joriy etishda duch keladigan muammolar tahlil qilinadi, shuningdek, raqamli transformatsiya davrida ta’lim uchun ochilayotgan istiqbol va imkoniyatlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, raqamli transformatsiya, ta’limni raqamlashtirish, interaktivlik, kiberxavfsizlik, kreativlik, kreativ ta’lim, kreativ pedagog, kreativlik tushunchasini shakllantirish.

Abstract: This article discusses the methods of teaching students to think creatively using digital technology during the lesson. Along with the definition of the concepts of creativity and teacher creativity, the formation of the concept of creativity is discussed. The problems faced by educational institutions in the implementation of digital technologies are analyzed, and the prospects and opportunities for education in the era of digital transformation are considered.

Keywords: digital technologies, digital transformation, digitization of education, interactivity, cybersecurity, creativity, creative education, creative teacher, formation of the concept of creativity.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы обучения учащихся творческому мышлению с использованием цифровых технологий на уроке. Наряду с определением понятий “креативность” и “креативность учителя”,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

рассматривается формирование понятия “креативность”. Анализируются проблемы, с которыми сталкиваются образовательные учреждения при внедрении цифровых технологий, а также рассматриваются перспективы и возможности образования в эпоху цифровой трансформации.

Ключевые слова: цифровые технологии, цифровая трансформация, цифровизация образования, интерактивность, кибербезопасность, креативность, креативное образование, креативный учитель, формирование понятия “креативность”.

Kirish. Ta’lim sohasida bo‘layotgan izchil harakatlar bir qator qaror va qonunlar bu - o‘quvchi yoshlarimizni dunyoqarashini kengaytirish,dunyoning yetuk insonlari qatorida turaolishdek vazifalarni bajarishni maqsad qilgan desak adashmaymiz. Bugungi kun yoshlarimizni zamon talablariga mos bo‘lib ulg‘ayishlari, chuqur bilim egallashlari kreativlik salohiyatini shakllantirishlari uchundir. Hozirgi kunda ko‘plab yangiliklar virtual dunyo, inson vazifalarini bajaruvchi robotlar bular hammasi inson tomonidan yaratilgan ya’ni inson tasavvur, tafakkuri natijasida dunyoga kelgan g‘oya va fikrlar mahsulidir. Insonning tafakkuri, dunyo qarashi, aql-idroki qancha keng bo‘lsa, uning ijod namunalari ham shuncha sermazmun bo'ladi. Bu esa o‘z navbatida pedogogika fanidagi “kreativ” tushunchasiga borib taqaladi.

O‘quvchi shaxsi faoliyatda, tabiatga, jamiyatga, odamlarga va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarida shakllanadi. Eng muhimi, ana shu jarayonlarda shakllangan yaxshi sifatlar o‘quvchining kelajak faoliyati, munosabatlari uchun juda zarurdir. Har bir yosh avlod tabiat va jamiyatning ma’lum rivojlanish bosqichlarida tug‘ilar ekan, u shu jamiyatda shakllangan ma’naviy muhitda voyaga yetadi. Unda o‘zi tug‘ilgan bosqichdagi hayot taqozo etayotgan faoliyat va munosabatlarga asta-sekin kirishib ketishi uchun ruhiy, ma’naviy va jismoniy imkoniyatlar mavjuddir. O‘zbek oilasi zimmasiga yosh avlodni har tomonlama mukammal shaxs qilib tarbiyalashdek yuksak mas’uliyatli vazifa yuklatilgan. Eng yuksak insoniy his-tuyg‘ular, ezguniyatlar, betakror ma’naviyat, iqtidor, aql-

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

zakovat, salohiyat ham oila bag‘rida tarkib topadi. Oilada yosh avlod xarakteriga xos bo‘lgan xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. Maktabda esa bu tarbiyani amalga oshirish uchun tizimli ish tashkil etiladi.

Avdulla Avloniyning ta’lim - tarbiyaga oid asarlaridan biri bo‘lgan 1913-yilda yozilgan “Turkiy guliston yoxud ahloq” kitobida yoshlarda ilk yoshdan boshlab axloq va odob tarbiyasini berish kerakligini ta’kidlanadi. Uningcha yoshlarda axloqiy me’yorlarning tarkib topishida muhit, sharoit va kishilar g‘oyatda muhim rol o‘ynaydilar. “Tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni go‘zallandurmak, zehnimizni ravshanlashdurmak lozim ekan” **[1]** .

Bu fazilatlar avvalo o‘qituvchining o‘zida shakllangan bo‘lishi zarur. Shundagina bunday fazilatlarni yoshlarda tarbiyalashga kompetentli bo‘ladi.

Hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri raqamli iqtisodiyot sharoitida ta’lim tizimini rivojlantirish hisoblanadi, Bu jarayon nafaqat iqtisodiyotni balki, ta’lim jarayonini ham raqamlashtirishni taqozo etadi, Bugungi kunda ta’lim tizimining transformatsiyasi ta’lim sifatini oshirish, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish va global raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun zaruriy holga kelgan, Bu sharoitda, shiddatli rivojlanish omili bo’lib tarbiya va ta’lim tizimini transformatsiyalashdir. Ta‘lim tizimini transformatsiyalash, aynan raqamli texnologiyalar taraqqiyotining mevasidir. So’nggi yetti yil ichida mamlakatimizda ta’lim tizimini rivojlantirish bo’yicha katta qadam tashlandi, bu esa raqamli iqtisodiyotning ko’plab sohalarida ta‘lim tizimini rivojlantirish jarayonlarini kengaytirish va uni transformatsiyalashga yordam berdi.

Shu ma’noda O‘zbekistonni 2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning 50 ta yetakchi davlatlari qatoriga kiritish bo‘yicha ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e’lon qilindi. **[2]**

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ko‘rinib turubdiki, Respublikamizda “Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” ni amalda tadbiq etishda, eng avvalo, puxta va mukammal va huquqiy mexanizmlarni shakllantrish va amaliyotga tadbiq etish, qolaversa innovatsion g‘oyalar, zamonaviy texnologiyalar va dars ishlanmalarni joriy etish bo‘yicha davlat organlari tashkilotlarini va tadbirkorlik sub’ektlarining uzviy hamkorligini ta‘minlash, barcha ta‘lim sohasi va barcha tarmoqlarni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish, bu borada zamonaviy IT bilimlarini chuqur egallagan intellektual salohiyatli kadrlarni yetishtirish, Respublikada “axborotlashgan jamiyat” muhitini yaratishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar tahlili:

Ta’limda hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish o‘qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o‘z ishiga ijodiy yondashishni talab etadi. O‘qituvchining kreativligi o‘z tajribasini qayta ko’rib chiqishi va yaxshilashi hammaga ma’lum narsalarni o‘zgartira olishi va ijodiy foydalana olishi, sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Kreativlik tushunchasi (lot., ing. ”create”-yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma’nosini anglatadi.

Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o‘ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkun. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug‘atlariga asoslanib o‘qituvchining kreativligi deb uning fikirlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta’riflash mumkun.

Ta’limni raqamlashtirish – axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) ta’lim faoliyatining barcha jabhalariga integratsiyalash jarayonidir. Bu jarayon ta’lim muassasalari va o‘qituvchilar uchun ta’lim jarayonini takomillashtirish, o‘quv tajribasini boyitish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Virtual sinflar, o‘quv platformalari, onlayn kurslar va multimedia resurslari ta’lim muhitining ajralmas

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qismiga aylanib, o‘quv tajribasini boyitib, bilimlarni yanada samarali o‘zlashtirishga yordam bermoqda.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Ta’limni raqamlashtirishning asosiy xususiyatlari:

1. Texnologiyalar integratsiyasi: Ta’limni raqamlashtirish turli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiyalashni nazarda tutadi. Bunga kompyuterlar, planshetlar, interaktiv doskalar, onlayn platformalar va ta’lim maqsadlarida maxsus ishlab chiqilgan dasturiy ta’minotlardan foydalanish kiradi.

2. Axborotga kirish: raqamli transformatsiya axborotga kirishni yanada qulay va kengroq qiladi. Talabalar va o‘qituvchilar eng so‘nggi bilimlarga ega bo‘lishlari, o‘quv materiallarini ko‘rishlari va onlayn tadqiqotlarni o‘tkazishlari mumkin, bu esa chuqurroq va rang-barang o‘rganishga hissa qo‘shadi.

3. Interaktivlik va shaxsiylashtirish: Raqamli texnologiyalar interaktiv o‘quv materiallari va tadbirlarini, shuningdek, shaxsiylashtirilgan o‘quv rejalarini yaratish imkonini beradi. Bu har bir talabaning o‘z ehtiyojlari va o‘rganish tezligini hisobga olgan holda materialni yanada samarali o‘zlashtirishiga yordam beradi.

4. Ta’limning globallashuvi: Onlayn kurslar, virtual universitetlar va xalqaro ta’lim loyihalari ta’limni global miqyosda yanada qulayroq qiladi. Talabalar ta’lim muassasasi boshqa davlatda joylashgan bo‘lsa ham fanlarni o‘rganishi mumkin. Ta’limni raqamlashtirish muammolari. Ta’limni raqamlashtirish, o‘zining ko‘p qirrali afzalliklariga qaramay, e’tibor va ularni hal etish strategiyalarini ishlab chiqishni talab qiluvchi qator vazifalarni ham qo‘yadi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarining qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Kreativ ta’lim, o‘quvchilarning ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, raqamli ta’lim muhitida alohida o‘rin tutadi. Ushbu maqolada raqamli ta’lim sharoitida kreativ ta’limning o‘rni va rolini ko‘rib chiqamiz.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Kreativ ta’lim, o‘quvchilarning o‘ziga xos fikrlash, yangilik yaratish va o‘z g‘oyalarini amalga oshirish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu ta’lim usuli, o‘quvchilarni muammolarni hal qilish, mustaqil o‘rganish va ijodiy yondashuvlarni qo’llashga rag‘batlantiradi. Raqamli ta’lim, kreativ ta’lim uchun keng imkoniyatlar yaratadi, chunki u ta’lim jarayonida turli xil raqamli vositalar va platformalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Yakuniy qism

Xulosa sifatida aytish mumkinki raqamli texnologiyalarni turli sohalarga nafaqat ta’lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o‘ynaydi. Ta’limni raqamlashtirish bugungi kunda zamonaviy ta’limda inkor etib bo‘lmaydigan ahamiyat kasb etadi. Bu ta’lim muassasalari va o‘qituvchilarga ta’limni individuallashtirish, ta’lim jarayonini globallashtirish va o‘qitishning interfaol usullarini joriy etish imkoniyatini beradi. Shunday ekan, raqamli ta’lim sharoitida kreativ yondashuv ta'lim jarayonini yanada qiziqarli, moslashuvchan va samarali qilishga, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini ochishga va innovatsion pedagogik faoliyatni rag'batlantiradi. Kreativlik raqamli ta’lim rivojida muhim rol o‘ynaydi. Bu bitiruvchilarga tez o‘zgaruvchan dunyoga tayyor bo‘lishga va zamonaviy vositalardan foydalangan holda murakkab muammolarni hal qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.., “O‘qituvchi”, 1992 y. 13-bet.

2. Yuldashev U.A., Xudoyberdiev M.Z., Axmedov, T.B. O‘quv jarayonining sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. //Academic research in educational sciences, 2021, 2(3), 1262-1268 betlar.

3. Маркова В. Д. Цифровизация образования: вызовы и перспективы. // Информатизация образования и науки. 2019. Том 3. С. 38-47.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

4. Смирнов А. В. Цифровое образование: новые технологии и педагогические практики. // Информационные технологии в образовании. 2019. № 40. С. 48-58.
5. Семенов А. В. Цифровизация образования: проблемы и пути развития. // Инновационное развитие образования. 2019. № 4. С. 52-59.
6.https://uzmarkaz.uz/uzc/news/talim-tizimiga-yanigcha-yondashuv-va-islohotlar